


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

4/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

4/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2024, № 4, aprel

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Safarov F.S.	O'zbek adabiy tilida ko'plik ma'nosining ifodalanishi va tejamkorlik	4
Akhmedova R.A.	Antropocentric aspect of phraseological units with the component "red"	12
Alieva N.X., Mukhtoraliyeva F.A.	The role of translation in the enrichment of languages: analysis of some neologisms presented in «Steve Jobs» by Walter Isaacson	17
Barnoyeva Z.S.	O'zbek leksikografiyasida boshlang'ich sinf o'quv lug'atlarini tuzishning ahamiyati	22
Barotova N.Sh.	O'zbek kinodiskursida "milliylik" obrazini yaratishning tamoyillari	27
Ganieva O.Kh., Khakimova D.M.	Concept of term definition and its characteristics	32
Kurbonova G.S., Pulatova U.B.	Frazeologik konsepsiyalar talqini	37
Jumayev E.B., Nurullayeva G.X.	O'zbek va nemis tilida shaxs ifodalovchi vositalar	45
Raxmonova Y.X.	Matn tili va tarjima muammolari	50
Ro'ziyev Y.B., Halimova Sh.Sh.	O'zbek va nemis tillarida o'tgan zamonning voqelanishi	55
Turayeva D.M.	Muallif punktuatsiyasining yuzaga kelishi va punktuatsion tizimdagi yangi an'analar	61
Xodjayeva D.I.	Lingvodidaktik terminologiya tadqiqot obyekti sifatida	65
Yaqubova M.M.	Tarjima jarayonida asl matnning semantik va pragmatik jihatlarini saqlash masalalari	70
Ахмеджанова С.Дж.	Сбор и анализ корпусных данных для узбекского и русского языков	76
Жўраева И.А.	Инглиз ва ўзбек антропонимик луғатларида атоқли отларнинг берилиш усуллари	81
Шермухамедова Н.А.	Двуязычный и многоязычный устный корпус	87
Qobilova N.S.	Til tejamkorligi nazariyasining tadqiq qilish tamoyillari	92
Qodirova H.X.	Badiiy diskurs tarjimasida kommunikativ-funksional yondashuv	98
Yuldasheva F.E.	Expression of the modesty maxim in communication	102
Рабиева М.Ғ.	Эвфемизмларнинг дискурсив турлари ва уларнинг таржима стратегияларини белгилашдаги роли	106
Ataeva G.B.	The power of idioms in business English: communicating with impact	117
Karimova D.H.	Tarjimada variantlilik hodisalarining asosiy belgilari xususida (Aka-uka Grimm ertaklarining o'zbekcha tarjimalari misolida)	122

LINGVODIDAKTIK TERMINOLOGIYA TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Xodjayeva Dilafro'z Izatilloevna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
d.xodjaeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqola tilshunoslikning terminologiya sohasiga bag'ishlangan bo'lib, unda, asosan, lingvodidaktik terminologiyaning tilshunoslikda va til o'qitishdagi ahamiyati, sohada keyingi o'n yillikda amalga oshirilgan tadqiqotlar va tadqiqotning yangi yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan. Maqolada termin va unga qo'yilgan asosiy talablar, terminologiyaning xususiy belgilari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, muallif ingliz va o'zbek tillarida lingvodidaktika termini va u bilan bog'liq bo'lgan metod, metodologiya va shu kabi boshqa tayanch tushunchalarning turli manbalardagi izoh va ta'riflarini keltirib, tahlilga tortadi. Ma'lumki, lingvodidaktika terminining ingliz tili terminologiyasida to'liq mos keladigan tushunchasi mavjud emas va shu sababli uning talqin va tarjimai qo'shimcha izohlarni talab qilishi haqida ham fikr-mulohazalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, lingvodidaktika, metod, metodologiya, yondashuv, texnologiya, ta'lim texnologiyasi

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. Данная статья посвящена области терминологии языкознания, в которой, главным образом, обсуждается значение и роль лингводидактической терминологии в лингвистике и преподавании языков, исследования, проводимые в этой области в ближайшее десятилетие, и новые направления исследований. Также в статье приведены сведения о термине и его основных требованиях, а также специфические признаки терминологии. Автор анализирует термин лингводидактика на английском и узбекском языках и связанные с ним термины, метод, методологию и другие основные понятия из источников узбекского, русского и английского языков. Известно, что термин лингводидактика не имеет полностью соответствующего понятия в терминологии английского языка, в связи с этим также предполагается, что его толкование и перевод требуют дополнительных комментариев.

Ключевые слова: термин, терминология, лингводидактика, метод, методология, подход, технология, образовательная технология.

LINGUODIDACTIC TERMINOLOGY AS AN OBJECT OF RESEARCH

Abstract. This article is devoted to the field of terminology of linguistics, in which, mainly, the importance of lingvodidactic terminology in linguistics and language teaching, the recent researches carried out in the field of terminology and the new directions of research were discussed. The article also provides information about term, terminology and basic requirements, as well as specific signs of terminology. Also, the author analyzes the term linguodidactics in English and Uzbek languages and related notions, such as method, methodology and other basic concepts from various sources. It is known that the term linguodidactics does not have a completely corresponding concept in the terminology of the English language, and therefore it is also suggested that its interpretation and translation require additional comments.

Keywords: term, terminology, linguodidactics, method, methodology, approach, technology, educational technology

Kirish. Chet tillarini o'qitishga kommunikativ yondashuv zamonaviy tillarni chet tili sifatida o'qitishga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Keng ilmiy almashinuv va xalqaro hamkorlikning rivojlanishi tufayli dunyoda chet tillarini o'qitishning turli metodlari faol integratsiyalashmoqda. Bu lingvodidaktik terminologiyada yuzaga keladigan o'zgarishlarda ham o'z aksini topadi. Lingvodidaktik terminologiya doimiy ravishda rivojlanib, yangi termin va tushunchalar bilan yangilanib boradi. Buni yangi sohaviy lug'atlarning nashr etilishi va ommalashib borayotgan monografik tadqiqotlar tasdiqlaydi.

Chet tillarini o'qitish nazariyasi va metodologiyasida eng muhim tushuncha va terminlarni tanlashda ham, ularga ta'rif berishda ham umumiy qabul qilingan yagona yondashuvlar hali ham mavjud emas. Bu bir qator sabablar bilan bog'liq: chet tilini o'rganish va o'zlashtirish jarayonlarini tavsiflashning murakkabligi; til o'qitish sohasida yangi nazariya va metodlarning paydo bo'lishi; uslubiy tushunchalar va nazariyalarning bir qator tashqi omillar (ta'lim sohasidagi davlat siyosati, hukmron mafkuraviy munosabatlar, mamlakatda mavjud bo'lgan o'qitish an'analari, shartlari va maqsadlarining o'zgarishi va b.) bilan shartlanishi shular jumlasidandir. Metodika doimiy ravishda rivojlanmoqda, yangi tushunchalar va uslubiy yechimlar paydo bo'lmoqda, til o'rganish shartlari va uning maqsadlari, chet tilini bilish darajasini tavsiflash va nazorat qilish metodlari o'zgarib bormoqda. Bularning barchasi o'qitishning yangi metodlarini izlash, yangi darslik va lug'atlar yaratishni taqozo etadi.

Ma'lumki, *termin* deganda maxsus tushunchalarni aniq ifodalash uchun yaratilgan (qabul qilingan) va ilmiy ta'rifga asoslangan maxsus sohaga oid so'z yoki birikma tushuniladi. Boshqacha aytganda, termin - tilning ma'lum maxsus bilim yoki faoliyat sohasi tushunchalarini ifodalash uchun qo'llanadigan so'z yoki so'z birikmalari hisoblanadi. Gumanitar fanlar terminlarining, shu jumladan, lingvodidaktik terminologiyaning o'ziga xosligi ularning ijtimoiy-madaniy shartlanishidadir. Gumanitar fanlar terminologiyasining xarakterli xususiyatlari, ma'lumki, tarixiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan bir qator omillar tufayli madaniyatlararo yoki milliy jihatdan aniqlangan polisemiya va sinonimiyadir.

Asosiy qism. Lingvodidaktik terminologiya tizimi leksik birliklarning uch qatlamini o'z ichiga oladi: umumilmiy leksik qatlam, fanlararo qatlam, hamda sohaga oid va tor tarmoq qatlamlari. Lingvodidaktik terminlar bilan ifodalangan lingvodidaktik tushunchalarning ta'riflari ilmiy ta'riflarga qo'yiladigan talablarga, ya'ni: qisqalik, to'liqlik, izchillik va monosemiyaga moyillik talablariga javob berishi kerak.

Ma'lum til metodikasiga oid terminologiyani tartibga solishning muhim bosqichi uni boshqa tillar bilan taqqoslashdir. Biz uchun ingliz va o'zbek tillaridagi metodikaga oid terminlarni qiyoslash ham muhim ilmiy, ham dolzarb ta'limiy vazifadir.

Lingvodidaktika termini tilde nisbatan yaqinda paydo bo'lgan bo'lib, XX-asrning 80-yillarida rus akademigi N.M. Shanskiy tomonidan ta'lim maqsadlarida tilni tavsiflash muammolarini ishlab chiqish bilan bog'liq holda kiritilgan. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, mutaxassislar tomonidan ushbu terminning mazmuni va hatto uning mavjudligi zarurati to'g'risida keyinchalik biror fikr bildirilgani yo'q. Ba'zilar bu termini til o'rgatishning nazariy va amaliy masalalari majmuini bildiruvchi va aslida "metodika" terminining o'rnini bosuvchi tushunchaning keng talqini sifatida qabul qilsalar, boshqalar *metodologiya* va *lingvodidaktika* terminlarini ekvivalent deb hisoblashadi. Yana boshqalari esa *lingvodidaktika*ni til o'qitishning umumiy nazariyasi sifatida tavsiflaydi.

Ingliz terminologiyasida ushbu termin bilan to'liq mos keladigan tushuncha yo'q, uning talqini va tarjimasi qo'shimcha izohlarni talab qiladi. Bu termin ingliz tilidagi *applied linguistics*, *language teaching methodology (theory)*, *language pedagogy*, *theory of language acquisition* kabi terminlarga qisman mos keladi. Masalan, chet tillarini o'qitish metodikasi bilan bog'liq terminologiyani ko'rib chiqaylik. Metodlar muammosi hamisha metodistlarni ham, o'qituvchilarni ham, talabalarni ham qiziqtirgan. Ba'zida metodlar tanlashda nazariyadan amaliyotga yoki oddiydan murakkabga qarab rivojlanish tamoyili namoyon bo'ladi, lekin bunday yondashuv har doim ham o'zini oqlamaydi: u yoki bu metodni tanlash asosan o'qitish shartlari va maqsadlari bilan belgilanadi. Biz o'sha davrdagi til o'rganishning qabul qilingan shart va maqsadlarini inobatga olishimiz kerak bo'ladi. Masalan, grammatik-tarjima metodining asosiy maqsadi chet tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirish, nafaot leksik va grammatik bilimlarga ega bo'lish edi. Chet tilini tez fursatda o'rganish zarurati va o'rganish maqsadlarining o'zgarishi turli xil intensiv metodlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirgi davrda til o'qitishda, asosan, kommunikativ til o'rgatish metodi ustunlik qiladi. Chet tillarni o'qitish metodlarining ko'pgina inglizcha nomlari o'zbek tilida to'liq ekvivalentlariga ega emas, masalan: *the silent way* (darsda o'qituvchi nutqi minimal darajada bo'lib, talabalarning faol nutqini tashkil etishni nazarda tutuvchi "sokin o'qitish metodi"); *total physical response* (jismoniy harakatlarga tayanish metodi); *data-driven learning* (ma'lumotlar bazasi yordamida tilni o'rganish - bunda o'quv jarayoni induktiv kognitiv jarayonlarga va autentik og'zaki va yozma matnlar to'plamini o'z ichiga olgan til ma'lumotlari bazasiga asoslanadi).

Zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlar va uslubiy jurnallarga murojaat qiladigan bo'lsak, metodlar muammosi odatda tarixiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilishining guvohi bo'lamiz. Til o'qitishning zamonaviy metodlari ta'limda asosiy e'tiborni o'qituvchi faoliyatiga emas, balki o'qitish jarayoniga, ya'ni talabaning kognitiv faoliyatiga qaratadi. Shuning uchun ham motivatsiya, tilni bilish darajasi, o'quv maqsadlari, nazorat qilish vositalari kabi tushunchalar bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Kommunikativ metodologiya til o'rganishning fundamental nazariyasi sifatida *metod* tushunchasidan tashqari *yondashuv*, *o'qitish*

texnologiyalari tushunchalarini ham ilgari suradi. Chet tilini o'rganishning maqsad va vazifalari o'qituvchi tomonidan emas, balki ta'lim xizmatlari iste'molchisi sifatida o'quvchilardan kelib chiqishi kerak.

Soha mutaxassislari *metod*, *yondashuv*, *texnologiya* terminlari o'rtasidagi munosabat haqida bahslashmoqda. Shu o'rinda N.D. Galskovaning bu masaladagi fikrini keltiramiz: "*Texnologiya* termini zamonaviy bo'lmasa ham, eng ko'p ishlatiladigan terminlardan hisoblanadi. *Ta'lim texnologiyasi* termini o'rniga *o'qitish metodikasi* terminini ishlatgan kishiga nisbatan ta'limdagi innovatsion jarayonlardan orqada qolgan, zamonaviy ilmiy terminologiya haqida hech qanday tasavvurga ega emas, kabi fikrlar bildirilishi mumkin" [6, 9]. Mazkur terminlar talqiniga chuqurroq nazar tashlash maqsadida ba'zi manbalarga murojaat qilamiz:

Method *n.* (in language teaching) a way of teaching a language which is based on systematic principles and procedures, i.e. which is an application of views on how a language is best taught and learned and a particular theory of language and of language learning.

Different methods of language teaching such as the DIRECT METHOD, THE AUDIOLINGUAL METHOD, TOTAL PHYSICAL RESPONSE result from different views of:

- a. the nature of language
- b. the nature of second language learning
- c. goals and objectives in teaching
- d. the type of syllabus to use
- e. the role of teachers, learners, and instructional materials
- f. the activities, techniques and procedures to use.

see also APPROACH [8]

Метод.

1. Направление в обучении, реализующее цели, задачи и содержание обучения языку и определяющее цели, задачи и содержание обучения языку и определяющее пути и способы их достижения. 2. Способ обучения аспектам языка или видам речевой деятельности [1].

Metod termini "ta'lim usullari yig'indisi" va "ta'limning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida ishlatilsa (mas. og'zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffuz o'rgatish metodlari), ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchramiz. Mas. *chet til o'qitishning tarjima metodi*, *to'g'ri metod*, *ongli-qiyosiy metod*, *an'anaviy metod*, *intensiv metod*, *audiovizual metod* va h.k. Prof. Yefim Izrailevich Passov fikricha, *metod* o'quv ja- rayonida qo'yilgan maqsad sari yo'naltirilgan va nutq faoliyati turlari bilan bog'liq prinsiplar sistemasidir. Demak, prinsiplar metodni shakllantiradi. Bu yerda keng ma'nodagi metodik yo'nalish haqida so'z boryapti [9].

Metod (yunoncha *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar, usullar majmui [10, 45].

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan shuni aytish mumkinki, har to'rttala berilgan manbalarda *metod* terminining asosiy mohiyati ochib berilgan. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, ingliz tilidagi manbada keltirilgan ta'rif, bizning fikrimizcha, to'liqroq berilgan, ya'ni metodni tanlash, asosan, til tabiati, til o'qitishning maqsad va vazifalari, o'qituvchi, o'quvchi hamda ta'lim materiallarining roli, mashq turlari va b. faktorlarni inobatga olib tanlanishi ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagan holda qayd etilgan.

E'tiborimizni *yondashuv* termini izohlariga qaratamiz:

Approach *n.* in language teaching, the theory, philosophy and principles underlying a particular set of teaching practices. Language teaching is sometimes discussed in terms of three related aspects: **approach**, **method**, and **technique**. Different theories about the nature of language and how languages are learned (the approach) imply different ways of teaching language (the method), and different methods make use of different kinds of classroom activity (the technique). Examples of different approaches are **the aural-oral approach** (see audiolingual method), **the cognitive code approach**, **the communicative approach**, etc. Examples of different methods which are based on a particular approach are the **audiolingual method**, **the direct method**, etc. Examples of techniques used in particular methods are **drills**, **dialogues**, **role-plays**, **sentence completion**, etc. [8].

Подход - это базисная категория методики, определяющая стратегию обучения языку и выбор метода обучения, реализующего такую стратегию [1].

Yondashuv: til o'rgatish yondashuvlari; *kommunikativ/kognitiv yondashuvlar* [9].

Yondashish – ta'limga yondashish turi; pedagogik tamoyilga ko'ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabani rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi [10, 21].

Yuqorida berilgan *yondashuv* termini izohlaridan ham ko'rinib turibdiki, ingliz tilida berilgan ta'rif termin ma'nosini to'laqonli ochib beradi. Shuningdek, mazkur ta'rifda, *metod* va *texnika* terminlari ham izohlanadi va misollar bilan to'ldiriladi.

Methodology *n*

1. (in language teaching) the study of the practices and procedures used in teaching, and the principles and beliefs that underlie them. Methodology includes:

a. study of the nature of language skills (e.g. reading, writing, speaking, listening) and procedures for teaching them;

b. study of the preparation of lesson plans, materials, and textbooks for teaching language skills;

c. the evaluation and comparison of language teaching method(e.g. the audiolingual method).

2. such practices, procedures, beliefs themselves. One can for example criticize or praise the methodology of a particular language course.

see also CURRICULUM, SYLLABUS

3. (in research) the procedures used in carrying out an investigation, including the methods used to collect and analyze data.

see also EXPERIMENTAL METHOD, SCIENTIFIC METHOD [8, 363].

Metodologiya. O'qitish metodikasi - bu o'qituvchi va talabalarning o'zaro tartibli bog'langan faoliyatlari orqali metodlarni o'rganadigan fanlar majmuasidir. Metodologiya - ta'lim muammolarini hal qilishga qaratilgan, hamda o'qituvchining maqsadli harakatlar tizimi asosida o'quvchilarni maqsadlariga erishishga yetaklaydigan ta'lim faoliyati hisoblanadi [2]. Metodika bir qancha o'qitish usullarini o'z ichiga oladi, ular quyidagilar: an'anaviy, innovatsion va boshqalar. Chet tilini o'rgatish metodologiyasi biron bir fanga bir tomonlama yo'naltirishdan qochgan holda, o'qitishning nazariy va amaliy masalalarini hal qilishda asosiy va tegishli fanlar ma'lumotlarini o'z ichiga oladi [3]. Metodologiya fan sifatida ta'lim jarayoniga asoslangan holda, tarkibiy qismlarga bo'linadi, bular: o'qituvchining o'quv faoliyati, mashg'ulotlarni tashkil etish (maqsadlari, mazmuni, texnikalari, usullari va vositalari), talabalarning ta'lim faoliyati [11].

Metodologiya termini izohiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ingliz tilidagi manbada terminning uchta ma'nosi alohida va izchil berilgan hamda misollar bilan boyitilganligining guvohi bo'lamiz.

Ma'lumki, o'zbek tiliga chet tillarini o'qitish nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi bilan bog'liq holda, *test, tilni o'zlashtirish psixologiyasi* va *tilni bilish darajalarining tavsiflari* sohasidagi ko'plab ingliz tilidagi terminlar kirib kelgan. Shu bilan birga, o'zbek tili ham o'zining kontseptual apparatini shakllantirmoqda, u boshqa tillarga har doim ham mos kelavermaydi.

Ma'lumki, hozirgi kunda o'qituvchining asosiy maqsadi nafaqat o'quvchiga bilim berish, balki o'quvchining mustaqil izlanishini ham zamonaviy AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)dan foydalangan holda shakllantirish hisoblanadi. AKTdan foydalanish xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish yo'lidagi izlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylandi. AKTdan foydalanish bilan bog'liq holda, mavjud o'qitish metodlarini o'zgartirish va kognitiv faoliyatni tashkil etishning yangi metodlari haqida gapirish mumkin. Zamonaviy darsliklar, asosan, internet bilan bog'liq vazifalarni o'z tarkibiga oladi va bu ko'p hollarda ma'lumot qidirish yoki yangi matnlarni yaratishni talab qiladi.

Lingvodidaktik adabiyotlarda *internet-loyiha, blog, veb-konferentsiya, podkast* va h.k.z. terminlar keng tarqalgan. Til o'rgatish amaliyotida kompyuter texnologiyalariga oid yangi termin va tushunchalar faol qo'llanila boshlandi. Bularga *veb-elementni o'z ichiga olgan bir qator terminlar* kiradi: *veb-test, veb-resurs, darslikka veb-ilova, vebinar, veb-kvest* va boshqalar. Boshqa tomondan qaraladigan bo'lsa, *fonogramma, videogramma, lingafon* kabi terminlar kam qo'llaniladigan bo'ldi. Til o'qitishda AKTdan foydalanish bilan bog'liq yangi terminlar ham paydo bo'ldi: *elektron lingvodidaktika, elektron pedagogika, kompyuter yordamida til o'qitish, elektron til o'qitish formati* va boshqalar.


Mutlaqo yangi terminlar orasida quyidagilarni qayd etish mumkin: *massive open online courses-ommaviy ochiq onlayn kurs (MOOC)* - bu maxsus ta'limiy internet-kurs bo'lib, til o'rganishni xohlaganlar uchun bepul foydalanish imkoniyatini beradi. Maxsus kompyuter dasturlari yordamida tashkil qilingan bunday o'quv kurslar Amerikaning yuqori reytinglarida o'rin egallaydigan Garvard, Stenford va shu kabi boshqa universitetlar tomonidan taklif qilinmoqda. O'zbek tilida ham inglizcha imloga asoslangan MOOC qisqartmasi yoki o'zbek tiliga o'girilgan qisqartma OOOK shakllari ishlatila boshlandi.

Ingliz tilidagi terminlarning ma'lum qismi chet tilini o'zlashtirishning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq, jumladan, chet tilini o'zlashtirishning ma'lum psixologik va fiziologik bosqichlari, masalan: *critical period, critical period hypothesis, sensitive period, fossilization, stabilization*. O'zbek tilida bunday terminlar lingvodidaktika bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarda alohida ta'kidlanmagan, ya'ni ushbu tematik guruhga oid maxsus lingvodidaktik terminologiya endi shakllanmoqda.

Xulosa. Lingvodidaktik terminologiya doimiy ravishda rivojlanib boradi, yangi terminlar paydo bo'ladi, ba'zi terminlar ommalashib boradi, boshqalari esa muomaladan chiqadi. Bu terminlarning faolligi ularning o'sha davrdagi til o'rganish maqsadlari va shartlaridan kelib chiqadi. Masalan, XX-asrning 60-70-yillarida tilning fonetik jihatini o'rganishga, til modellari va namunalariga ustuvorlik berilgan bo'lsa, keyingi yillarda, asosan, o'quvchining ta'limdagi roli, matn xususiyatlari, til o'rganish strategiyalari, o'quv dasturlari kabilarga e'tibor ko'proq qaratilganligi kuzatiladi. Bu kabi o'zgarishlar o'zbek tilidagi lingvodidaktik terminlarning qo'llanilishini o'rganishda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Hozirgi davrda o'zbek lingvodidaktik terminologiyasida, bizning fikrimizcha, eng ko'p uchraydigan terminlar: *ko'nikma*, *kompetentsiya*, *diskurs*, *munosabat*, *baholash*, *feedback* va h.k.z. Sohaviy adabiyotlarda ma'lum termin va tushunchalarning tez-tez qo'llanilishi ilmiy paradigmalarning o'zgarishi, lingvistik va uslubiy tadqiqotlar yo'nalishining o'zgarishini ko'rsatuvchi muhim faktor bo'lib xizmat qiladi. Lingvodidaktik terminologiyani o'rganish va taqqoslash o'zbek lingvodidaktik terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Uch til doirasida terminologik va kontseptual tizimni solishtirish chet tili o'rganishdagi muammo va qiyinchiliklarni qayta ko'rib chiqish, tillarni o'qitish sohasidagi individual milliy an'analarning o'ziga xos jihatlari, afzalliklari va qiyinchiliklarini aniqlash imkonini beradi. Chet tillarini o'qitish sohasidagi terminologiya va tushunchalarning standartlashtirilgan va taqqoslanadigan tavsiflari o'zbek o'quvchilarining xorijiy tillarni o'rganish amaliyotiga ijobiy ta'sir ko'rsadi.

ADABIYOTLAR:

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. *Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам)*. - М.: Икар, 2009.
2. Колесникова И.Л., Долгина О.А. *Англо-русский терминологический справочник по методике преподавания иностранных языков*. - М.: Дрофа, 2008.
3. Ловцевич Г.Н. *Кросскультурный терминологический словарь как словарь нового типа (на материале английских и русских терминов лингводидактики)*: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. - М., 2010.
4. Федюнина С.М. *Англоязычная и русскоязычная лингводидактическая терминология в лингвистическом и экстралингвистическом аспектах исследования*. - Саратов, 1988.
5. Щербина С.И. *Развитие русской терминологии сравнительно-исторического языкознания*: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. - М., 2004.
6. Гальскова Н.Д. *Новые технологии обучения в контексте современной концепции образования в области языков // Иностранные языки в школе*. -2009. - № 7. - С. 9 - 15.
7. Hunter D., Smith R. *Unpackaging the past: 'CLT' through ELTJ keywords // English language teaching journal*. - 2012. - 66 (4). - P. 430-439.
8. Jack C.Richards, Richard Schmidt. *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics*. – Pearson Education Limited, 2010. – 654 p.
9. Jamol Jalolov. *Chet tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 430 b.
10. Jurayev R.X., Tolipov O'.Q. va b. *Pedagogik atamalar lug'ati*. – Toshkent, 2008. – 136 b.
11. Xoliqulov I.B. *Chet tili o'qitishning metodikasi va nazariyasi*//*Iqro jurnali*/2023 CrossrefDoi:<https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-41>



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
29.04.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344